


V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2022- yilning yanvar–dekabr holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 27 507 tani tashkil qildi. Viloyat bo‘yicha kichik tadbirkorlik korxonasi va tashkilotlarining soni Urganch shahrida 5 309 ta, Xiva shahrida 2 312 ta, Xiva tumanida 2 076 ta, Urganch tumanida 3 137 ta, Xonqa tumanida 2 052 ta, Yangiariq tumanida 1 545 ta, Hazorasp tumanida 1 601 ta, Gurlan tumanida 1 857 ta, Qo‘shko‘pir tumanida 2 188 ta, Bog‘ot tumanida 1 796 ta, Shovot tumanida 1 620 ta, Tuproqqal‘a tumanida 654 ta va Yangibozor tumanida 1 360 tani tashkil qildi.


Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi 2022-yil yanvar – dekabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida jami tashkil etilgan subyektlarning (37,5 foizi), sanoat tarmog‘ida (21,0 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (16,1 foiz), tashish va saqlash xizmatlarda (5,0 foiz) tashkil etilgan.

2022-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p Urganch shahrida 33,1 birlikda, Xiva shahrida 22,2 birlikda, Urganch tumanida 13,8 birlikda, Yangibozor tumanida 13,7 birlikda, Xiva tumanida 12,6 birlikda, Yangiariq tumanida 11,5 birlikda, Gurlan tumanida 10,8 birlikda Tuproqqal'a tumanida 10,5 birlikda, Qo'shko'pir tumanida 10,5 birlikda, Xonqa 10,0 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 9-7 birlik oralig'ida Shovot, Bog'ot, Hazorasp tumanlarida ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlik, fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2023- yil 1- yanvar holatiga ro'yxatga olingan	2022- yil yanvar - dekabr	
		tashkil topdi	tugatildi
Viloyat bo'yicha:	27 507	5 655	1 465
<i>shaharlar:</i>			
Urganch	5309	750	280
Xiva	2312	334	64
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	1796	506	87
Gurlan	1857	436	123
Qo'shko'pir	2188	548	106
Urganch	3137	585	153
Hazorasp	1601	446	162
Tuproqqal'a	654	148	36
Xonqa	2052	347	87
Xiva	2076	367	82
Shovot	1620	480	71
Yangiariq	1545	397	128
Yangibozor	1360	311	86

2022-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda ro'yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni 5 655 tani tashkil topgan bo'lib, bu ko'rsatkich Urganch shahrida 750 ta, Urganch tumanida 585 ta, Xiva shahrida 334 ta, Xonqa tumanida 347 ta, Qo'shko'pir tumanida 548 ta, Hazorasp tumanida 446 ta, Xiva tumanida 367 ta, Shovot tumanida 480 ta, Yangiariq tumanida 397 ta, Gurlan tumanida 436 ta, Bog'ot tumanida 506 ta, Yangibozor tumanida 311 ta va Tuproqqal'a tumanida 148 tani tashkil qildi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 71,6 foizi (2021- yil yanvar-dekabrda 73,7 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2022- yilning yanvar- dekabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2956,0 mlrd. soʻmni (jami sanoat ishlab chiqarishining 16,1 foizi) tashkil qildi;

- 23723,5 mlrd. soʻmlik qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari mahsulotlari ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan xizmatlar) boʻlib, oʻsish surʻati 103,3 foizni (qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari yalpi mahsulotining 96,4 foizi) tashkil qildi;

- 4681,3 mlrd.soʻmlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalarha jmining 53,2 foizi) oʻzlashtirildi va 2021- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 90,2 foizni tashkil qildi;

- 4373,8 mlrd.soʻmlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 89,4 foizi) bajarildi va 2021- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 99,4 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 104,8 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 83,5 foizi), yoʻlovchi aylanmasining esa 103,9 foizga (umumiy yoʻlovchi aylanmasining 96,2 foizi) tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 82,6 foizi yoki 11075,3 mlrd. soʻmi (oʻsish 106,7 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 62,1 foizi yoki 6396,5 mlrd. soʻmi (oʻsish 110,2 foiz) shakllantirildi;

- 142,4 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 58,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 189,1 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 35,0 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik
subyektlarining ulushi**

(2022- yilning yanvar- dekabrda)

	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	23723,5	96,4
Sanoat	2956,0	16,1
Qurilish	4373,8	89,4
Chakana savdo	11075,3	82,6
Yuk tashish, mln tn.	35,2	95,3
Yo‘lovchi tashish, mln.kishi	425,9	94,7
Eksport, mln. AQSh doll.	142,4	58,1
Import, mln. AQSh doll.	189,1	35,0

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi
(foizda)**

